

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'RAZMETOV MANGUBEK TURSUNBAYEVICH**

**SULAYMON BOQIRG'ONIY TASAVVUFIY QARASHLARINING  
FALSAFIY ASOSLARI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**UDK: 141.336:17(092)(575.1)**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philosophical sciences**

<b>O'razmetov Mangubek Tursunbayevich</b> Sulaymon Boqirg'oniy tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslari.....	3
<b>Уразметов Мангубек Турсунбаевич</b> Философские основы тасаввуф воззрений Сулеймана Бакиргани.....	23
<b>Urazmetov Mangubek Tursunbaevich</b> Philosophical foundations of tasawwuf views of Suleiman Bakirgani .....	43
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of works published.....	47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**URAZMETOV MANGUBEK TURSUNBAYEVICH**

**SULAYMON BOQIRG‘ONiy TASAVVUFiy  
QARASHLARININGFALSAFIY ASOSLARI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2022.3.PhD/Fal672 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xajiyeva Maksuda Sultanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Navro'zova Gulchehra Negmatovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Alimov Akbar Narboyevich**  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24; emil: [rektor@samdu.uz](mailto:rektor@samdu.uz). Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_ -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_\_" dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh.Negmatova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**X.A.Djurakulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.R.Samadov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon xalqlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish, madaniy hayotini yuksaltirishda sharq xalqlari falsafiy merosi alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy, tasavvufiy-falsafiy, ilmiy-ma'rifiy merosi fuqarolarni ayniqsa, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirishda muhim tarbiyaviy o'ringa ega bo'lib, bugungi kunda yoshlarni "ma'naviy qashshoqlik" va "axloqiy tubanlik" kabi illatlardan himoya etishda bu umumbashariy ma'naviy merosga bo'lgan talab yanada ortib bormoqda. Shu sababli sharq allomalarining inson sha'ni va oriyatini himoya qiluvchi insonparvarlik, hurfiylik va bag'rikenglik g'oyalari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni ma'rifatga yetaklash yo'llarini aniqlash ayni vaqtda, o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahon ilmu-fan taraqqiyotida axloqiy tamoyillarni shakllantirishga erishish, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvliknini mustahkamlashning zamonaviy usullari ma'naviy-madaniy muhitini ta'minlashning innovatsion yo'llarini ishlab chiqishga oid ilmiy va emperik tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlarning nazariy metodologik asosi sifatida millatlar va xalqlarning bebaho ma'naviy merosi, umuminsoniy qadriyatlari va o'ziga xos milliy taraqqiyot yo'li muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sharq mutafakkirlari jumladan, tasavvufiy ta'limotlari, ayniqsa, Sulaymon Boqirg'oniy g'oyalarida ilgari surilgan bunyodkorlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, xalq manfaati ustuvorligi kabi tamoyillarni barkamol avlodni ongiga singdirish asosida ilmiy-irfoniy, diniy bilimlarni mustahkamlash bilan bog'liq tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj tobora oshmoqda.

Mamlakatimizda buyuk allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati bu yo'nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz"<sup>1</sup>. Bu borada Sulaymon Boqirg'oniyning nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida e'tirof etilgan tasavvufiy-falsafiy qarashlarini ilmiy asosda o'rganish, uni yoshlar tarbiyasiga oid axloqiy qarashlari, komil insonni tarbiyalash kabi g'oyalarining mazmunini ilmiy asosda ochib berishni taqozo qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2017- yil 14-fevraldagi PQ-2774-son "Imom

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. // <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/>

Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbek xalqi tarixiy-madaniy va ma'naviy merosiga oid konseptual masalalar, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning o'zbek xalqini ma'naviy tiklanishi, tarixiy xotira va yoshlarni buyuk ajdodlarimizga munosib voris qilib tarbiyalash haqidagi fundamental fikrlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlaridagi yoshlar tarbiyasini yuksaltirishga oid g'oyalari mazkur tadqiqotning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Xorijlik olimlaridan Sulaymon Boqirg'oniyning hayoti, ilmiy merosi va tasavvufiy-falsafiy qarashlari A.Xamid, T.Esenbeki, D.Devin, A.Knish, V.Gardner, A.Papas va boshqalar XVI asrda Movarounnahrda Naqshbandiya tariqatini rivojlantirishdagi o'rnini e'tirof etishgan.

Sulaymon Boqirg'oniyning hayoti, ma'naviy merosi ko'proq turk tadqiqotchilari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Mustafõ Sever<sup>1</sup>, Sherafidin Golchuk, Kamol Eraslan, Sayfetdin Ershahin, Ayshegul Sertkaya<sup>2</sup>, Yashar Ochak, Abdurrahmon Gyuzal<sup>3</sup> va boshqalar mutasavvifning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari hududida O.F.Akimushkin, A.A.Semyonov, Galimjon Ibragimov<sup>4</sup>, N.Q.Metbek<sup>5</sup>, A.Axmetbekova<sup>6</sup>, L.V.Baxrevskiy<sup>7</sup> va boshqalar mutafakkirni tariqatdagi faoliyatini o'rganishgan.

<sup>1</sup> Mustafa Sever. Bakirgan Kitabı. Hakim Suleyman Ata-Hikmetler ve Kısalar, Ahmet Yesevi Universitesi Yayinlari., Ankara.-2018, -352 s.

<sup>2</sup> Sertkaya, Ayşe Gül . "Kul Süleyman (Bakirgani) ve Yûnis Emre Hikmetleri". Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi 0 / 39 (Aralık 2010): 161-208 .

<sup>3</sup> Abdurrahman Güzel. Süleyman Hakim Ata'nin Bakirgan Kitabı Üzerine Bir İnceleme. Ankara, 2008. S-564

<sup>4</sup> Galimcan İbrahimov. Bakirgan Kitabı. Dil, Edebiyat ve Tarih Araştırmaları Enstitüsü Türkçe Yazmaları, Kol.39, Liste 1-2/734 (yazma 96 varak) Kazan/Tataristan

<sup>5</sup> Сүлеймен Бақырғанидың шығармашылық өмірбаяны: монография / Н.Қ. Мәтбек. – Алматы: Қазақ университеті, 2018. – 166 б.

<sup>6</sup> Ахметбекова А. "Қазақ әдебиетіндегі сопылық поэзия" Монография. Алматы: Қазақ университеті, 2011. – Б. 73-101; Ахметбекова А.К. Қожа Ахмет Йасауидің шығармашылығы: Филол. ғыл. канд. дис. – Алматы, 1995. – 163 б.

<sup>7</sup> Бахревский Л. В. Тарикат Ясавийа и Крым: Сулейман Бақырғани: дастаны и хикматы. История и

O‘zbekistonlik olimlardan M.Xajiyeva, S.Xodjanioyozov, M.Hasaniy<sup>1</sup>, H.Po‘latov, U.Yembergenov, J.Shomurodov<sup>2</sup>, N.Komilov<sup>3</sup>, I.Haqqul, S.Rafiddinov<sup>4</sup>, T.Qorayev<sup>5</sup>, A.Bozorov, E.Ochilov, E.Rustamov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda mutafakkirning hayoti, ma’naviy merosi, yoritilgan, biroq, yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida Sulaymon Boqirg‘oniy tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslari masalasi maxsus tadqiqot sifatida o‘rganilmagan. Biz tadqiqotimizda mutasavvif tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslarini tadqiq etishga e’tibor qaratdik.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq “Urganch davlat universitetini 2017-2030-yillarda rivojlantirish dasturi”ning 2.4-bandiga asosan va “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Sulaymon Boqirg‘oniy ma’naviy merosidagi tasavvufiy qarashlarining ijtimoiy ahamiyatini falsafiy asoslash va undan samarali foydalanish bo‘yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Mutasavvif dunyoqarashining shakllanishining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini tahlil qilish;

Sulaymon Boqirg‘oniy – Yassaviylik tariqatining davomchisi ekanligini asoslab berish;

Mutasavvif ma’naviy merosining tasavvufiy-falsafiy tahlilini ochib berish;

Sulaymon Boqirg‘oniy tasavvufiy-falsafiy qarashlarining metodologik tahlilini asoslab berish;

Inson borlig‘iga oid g‘oyalarning tasavvufiy-falsafiy talqinini mantiqan asoslash;

Ma’rifat kategoriyasi mutasavvif falsafiy qarashlarining bosh kategoriyasi ekanligi asoslangan;

Mutasavvif tasavvufiy-falsafiy qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish;

**Tadqiqot obyekti** sifatida Sulaymon Boqirg‘oniy tasavvufiy-falsafiy va ma’naviy merosi tanlab olingan.

**Tadqiqot predmetini** Sulaymon Boqirg‘oniyning tasavvufiy qarashlaridagi falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatlarini tahlil qilish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, germenevtik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalaniladi.

---

традиционная культура народов Причерноморья. Gosudarstvennyĭ respublikanskiĭ tsentr russkogo folklor, 2015. 207-с

<sup>1</sup> Хасаний М. Муқаддима; Яссаавий Аҳмад. Девони ҳикмат. –Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1992.

<sup>2</sup> Ембергенов У, Шомуродов Ж. Сулаймон Боқирғоний(Ҳаким ота). –Тошкент.: “Ўзбекистон”. 2015. -272 б.

<sup>3</sup> Н.Комилов Тасаввуф. Иккинчи китоб. – Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, - 1999.

<sup>4</sup> Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши муаллифлари Иброҳим Ҳаққул, Сайфиддин Рафиддин. Тошкент.: “Ёзувчи”, 1991.-80б;

<sup>5</sup> Очиллов Э. Барҳаёт сиймолар. — Тошкент: “O‘zbekiston”, 2012. — 424 бет.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Sulaymon Boqirg'oniyning Movarounnahrda Yassaviylik tariqati irfoniy-falsafiy g'oyalarning izchil davomchisi ekanligi va tasavvuf tarixida diniy-falsafiy dunyoqarashning rivojlanishida substansional asos bo'lib kelganligi mantiqiy dalillangan;

Sulaymon Boqirg'oniyning insonni kamolotga erishish bosqichlari hamda falsafiy antropologiyaga oid muammolar bilan bog'liq tasavvufiy qarashlarida ilgari surilgan inson, inson borlig'i, tana, ruh, qalb, nafs kabi kategoriyalarning bugungi kundagi konstruktiv ahamiyati ilmiy asoslangan;

Mutasavvifning "Me'rojnomasi", "Imom A'zam qissasi", "Bibi Maryam qissasi", "Hazrat Ismoil qissasi", "Yarim olma qissasi", "Oxir zamon kitobi" va "Qissayi Go'daknoma" kabi asarlarida mavjud diniy-falsafiy, axloqiy g'oyalarning hozirgi zamon yoshlarini vatanparvar va gumanistik shaxs etib tarbiyalashdagi funksional xususiyatlari ochib berilgan;

Sulaymon Boqirg'oniyning jamiyatda ro'y beruvchi ijtimoiy ziddiyat (konflikt)larni bartaraf qilishga qaratilgan ijtimoiy hamjihatlik, bag'rikenglik (tolerantlik), murosaviylik singari ma'naviy-ma'rifiy va komillikka undovchi g'oyalari asosida inson qadrini ulug'lash, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli ma'naviy makon barpo etish uslublarining yoshlarda ma'naviy, g'oyaviy immunitetni shakllantirishda ilohiy axloq sohibiga aylanish, hidoyat yo'liga boshlash kabi tamoyillari takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ilmiy-tadqiqot institutlarida bajarilgan amaliy loyihalarning bajarilishi, amaliy loyihalarning ilmiy hamda ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritishga xizmat qilgan;

madaniy me'rosni asrab-avaylash chora tadbirlari doirasida "Turkiy tilli xalqaro yoshlar festivali" va "Yoshlar turizmi II qurultoyi"ni tashkil etish va o'tkazish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan;

O'zbekiston Respublikasi Musulmonlar idorasi xodimlari hamda imomlar tomonidan diniy, tasavvufiy, ma'naviy-ma'rifiy tarzda olib borilgan ma'ruzalarning sifat jihatidan yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan Sulaymon Boqirg'oniyni tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslarini o'rganishga doir uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish hamda qator chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Muammoning aniq qo'yilganligi, tadqiqot jarayonida birlamchi manbalardan foydalanilganligi bilan erishilgan, shu bilan birgalikda tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy anjumanlardagi ma'ruzalarda, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan tavsiya qilingan jurnallardagi nashrlarda, xorijiy nashrlarda bayon qilingan, shuningdek, tadqiqot jarayonida olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy xulosalarning falsafa tarixi tahlili, jumladan Sharq mutafakkirlari hamda yassaviylik tariqatini yangi konseptual-uslubiy asosda o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, tasavvufning poklik, qalb sofliqi, halollik, tolerantlik madaniyatining yoshlarda intellektual, diniy tafakkur

rivojlanishni shakllantirishda “Tarbiya”, “Falsafa”, “Falsafa tarixi”, “Tasavvuf falsafasi”, “Dinshunoslik”, “Etika” fanlari mazmunining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalardan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ma’naviyat va ma’rifat markazlari, O‘zbekiston respublikasi yoshlar ittifoqi markaziy kengashi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarini ta’limiy-tarbiyalash faoliyatida, shuningdek, bo‘limlarining targ‘ibot va tashviqot ishlarini samaradorligini oshirishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.** Tadqiqot natijasida Sulaymon Boqirg‘oniy tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar va takliflar asosida:

Sulaymon Boqirg‘oniyning Movarounnahrda Yassaviylik tariqati irfoniyl-falsafiy g‘oyalarining izchil davomchisi ekanligi va tasavvuf tarixida diniy-falsafiy dunyoqarashning rivojlanishida substansional asos bo‘lib kelganligiga oid metodologik tavsiyalar hamda amaliy takliflardan Qoraqalpog‘ gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2018-2020-yillarda bajarilgan “Qoraqalpog‘iston jamiyatidagi ijtimoiy ko‘rsatmalar transformatsiyalanishi: tarix va amaliyot” mavzusidagi PZ-20170915198 raqamli amaliy loyiha ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 5-maydagi 201/1-son ma’lumotnomasi). Natijada, yosh avlodning yurtimiz shaharlari, tarixi, madaniy merosi, obidalari va san’at asarlari haqidagi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularda insonparvarlik, ilmparvarlik, kamtarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlarni qaror toptirishga xizmat qilgan;

Sulaymon Boqirg‘oniyning insonni kamolotga erishish bosqichlari hamda falsafiy antropologiyaga oid muammolar bilan bog‘liq tasavvufiy qarashlarida ilgari surilgan inson, inson borlig‘i, tana, ruh, qalb, nafs kabi kategoriyalarning bugungi kundagi konstruktiv ahamiyatiga doir nazariy xulosalar, metodologik tavsiyalar va amaliy takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligining 2023-yilga mo‘ljallangan “YO‘L XARITASI”dagi madaniy me’rosni asrab-avaylash chora tadbirlari doirasida “Turkiy tilli xalqaro yoshlar festivali” va “Yoshlar turizmi II qurultoyi”ni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha dasturlarini ishlab chiqishga foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 1-maydagi 05-12-15-2758-son ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligini oshishiga xizmat qilgan;

Mutasavvifning “Me’rojnoma”, “Imom A’zam qissasi”, “Bibi Maryam qissasi”, “Hazrat Ismoil qissasi”, “Yarim olma qissasi”, “Oxir zamon kitobi” va “Qissayi Go‘daknoma” kabi asarlarida mavjud diniy-falsafiy, axloqiy g‘oyalarning hozirgi zamon yoshlarini vatanparvar va gumanistik shaxs etib tarbiyalashdagi funksional xususiyatlari ochib berilganligiga oid metodologik tavsiyalar va amaliy takliflardan O‘zbekiston musulmonlari idorasining Xorazm viloyati vakilligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PQ 3721-son “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy me’rosini keng o‘rganish va

targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini targ'ib etish to'g'risida"gi Qarori ijrosi bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Musulmonlar idorasining 2023-yil 05-maydagi 1378-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston musulmonlari idorasining Xorazm viloyati vakilligi faoliyatini samarali tashkil etishga, xodimlari hamda imomlar tomonidan olib borilgan ma'ruzalarning sifat jihatidan yanada takomillashishiga xizmat qilgan;

Sulaymon Boqirg'oniyning jamiyatda ro'y beruvchi ijtimoiy ziddiyat (konflikt)larni bartaraf qilishga qaratilgan ijtimoiy hamjihatlik, bag'rikenglik (tolerantlik), murosaviylik singari ma'naviy-ma'rifiy va komillikka undovchi g'oyalari asosida inson qadrini ulug'lash, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli ma'naviy makon barpo etish uslublarining yoshlarda ma'naviy, g'oyaviy immunitetni shakllantirishda ilohiy axloq sohibiga aylanish, hidoyat yo'liga boshlash kabi tamoyillari takomillashtirilganligiga oid taklif-tafsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 16-bandi "Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, boy ma'naviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ'ib qilish" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 7-iyuldagi 249-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda Sulaymon Boqirg'oniyni tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslarini o'rganishga doir uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (7 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sulaymon Boqirg‘oniy yashagan davr: ijtimoiy-siyosiy muhit, ma‘naviy-madaniy hayot, mutasavvif dunyoqarashi genezisining metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Sulaymon Boqirg‘oniy dunyoqarashi shakllanishining ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari, uning Yassaviylik tariqatining munosib davomchisi ekanligi, mutasavvif ma‘naviy merosining tasavvufiy-falsafiy tahlili ochib berilgan.

Dissertant mazkur bobda Movarounnahrning jahon tamadduniga, jumladan, ilm fan va ma‘naviyat, falsafa, din, san‘atning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan buyuk siymolar, mutafakkirlar, mutasavviflar, allomalarni yetishtirib bergan madaniy makon ekanligini alohida ta‘kidlaydi. “Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql – idrok bilan jasoratga, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etgan buyuk arboblar ko‘p bo‘lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy ma‘naviyatimizni rivojlantirishda ulkan hissa qo‘shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo‘lib qoldilar”<sup>1</sup>. Qadim Movarounnahr diyori o‘zining buyuk siymolari, mutafakkiru-mutasavviflari bilan jahon xalqlari ma‘naviy hayotida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Din, fan, falsafa rivoj topgan diyorga aylangani ilmiy haqiqatdir. Bu zamindan yetishib chiqqan allomalar dunyo ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shishgan. Shunday allomalardan biri haqiqiy ismi Sulaymon bo‘lib, o‘z davrida o‘zining benazir xislatlari bilan Hakim unvoniga sazovor bo‘lgan ulug‘ mutasavvif Sulaymon Boqirg‘oniydir. Sulaymon Boqirg‘oniy Xorazmda tug‘ilib, (hijriy 582) 1186-yilda Boqirg‘onda vafot etgan. Boqirg‘oniyning yashagan joyi Boqirg‘on qasabasi bo‘lgani uchun mutasavvif Boqirg‘oniy nomi bilan tanilgan. Sulaymon Boqirg‘oniy she‘rlari, hikmatlarida Sulaymon, Qul Sulaymon, Hakim, Hakim xo‘ja, Hakim Sulaymon, Hakim Xoja Sulaymon, Hakim ota, Miskin, Sulaymon kabi taxalluslardan foydalangan<sup>2</sup>. U Xoja Ahmad Yassaviyning muridlaridan biri bo‘lib, o‘z o‘rnida uning turkiy qavmlar orasidagi eng mashhur murshidi hisoblangan.

Mazkur mavzuda Faxriddin Ali Safiyning (1503) “Rashahot ul aynul hayot” asarida quyidagi ma‘lumotlarga guvoh bo‘lamiz: “Uchinchi murshid... Turkiy olimlarning buyuklaridan... Darvishlik hollaridan turkiycha naqlari Turkistonda juda mashhur va tillardan-tillarga doston bo‘lgan”. Bizgacha yetib kelgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Xorazmda yashagan Sulaymon Boqirg‘oniy atrofdagi xalqning irshodi bilan shug‘ullangan mutasavviflardan biri bo‘lgan.

Alisher Navoiy (1441-1501), “Nasoyim ul muhabbat min shamoyim-il futuvvat” (1496) nomli asarida: “Hakim ota Rahima hullahu taolo... Ismi Sulaymondur. Va Xoja Ahmad Yassaviy Quddisa sirruhuning murididir. Hamono xo‘ja bir kuni tabxiy buyurgandirlar matbahi o‘tning yetmaydur etib qilgandur. Alar as‘hobga degandurlarki yoziding o‘tni tirib qiltirur. Va ul zamon yagin yagadur erkindir. Azhob kim o‘tin tirubdirlar, ular xizmatiga qilguncha yagin

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. -Тошкент, 1997. – Б. 140.

<sup>2</sup> Mustafa Sever. Bakırgan Kitabı. Hakim Suleyman Ata-Hikmetler ve Kıssalar, Ahmet Yesevi Universitesi Yayınları., Ankara.-2018, -S.352.

jihatinin otunlar bo'lgandur. Va Hakim ota tergan o'tinlarni to'niga o'rab quruq holda saqlagan. Xo'ja hazratlari aytganlarki, Ey farzand, hokimona ish qilding. Va alarga bu laqab o'shandan qolgandir. Va Hakim otaga hikmat tili go'yo bo'libdur. Andoqki, uning favoyidi turklar orasida mashhurdir. Shuningdek, Xaziniyning (1534-?), "Javohir ul abror min anvojil bihor" nomli asarida Ahmad Yassaviydan bahs etar ekan, "manquldurki, shayxul-mashoyix-quddisa-sirruhul-aziz hazratlarining mukammal o'n ikki ming valoyat-ma'ab karomati iqtisod komili mukammal azhobi suffasi bor edi. Qishda ham yozda ham mushohada davomi doroi huzuri shariflaridan mutlaqo g'iybatlari yo'q edi. Boshqa mashoyixdan madakish mashoriku mag'oribu olamda irshod va ruxsatlari bilan muntashir bo'lib, xalqullohu taoloning tarbiyatu da'vatlariga ergashar edilar. Ul jumladan biri So'fi Muhammad donishmand Zarnuqiy ikkinchi Sulaymon ota, uchinchi Bobo Mochin, to'rtinchi Amir Ali Hakim, beshinchi Shayx Hasan Bulg'oniy, oltinchi Miom Marg'oziy, yettinchi Shayx Usmon Mag'ribiy"<sup>1</sup>.

Sulaymon Boqirg'oniy Ahmad Yassaviyning boshqa muridlaridan oldin vafot etgan bo'lsa-da, ancha muddat davomida irshod masnadida qolgan. Tariqatga mansub muridlarning katta bir qismi atrofida to'plangan. Boqirg'oniy Xorazmda tasavvuf ta'limotini puxta egallagan ulug' mutasavvif sifatida kamol topgan. O'zi tug'ilgan Xorazmda Qur'on, hadis, tafsir, fiqh, tasavvuf va falsafaga oid ilmlarni chuqur o'rganib, taxayyul va tafakkurini ezgu irfoniy-ma'rifiy bilimlar bilan boyitgan.

Dissertantning fikriga ko'ra, tasavvuf ta'limotini yanada mukammallashtirish va ilmini boyitish maqsadida o'zidan oldin mavjud bo'lgan tasavvuf tariqatlari namoyandalarining ma'naviy merosi, tasavvufiy qarashlari va islom olamidagi tasavvuf maktablari faoliyatini chuqurroq o'rganib chiqqan. Fikrlarining dalili sifatida "Boqirg'on kitobi" asaridagi quyidagi to'rtlikni keltirish o'rinli deb hisoblaydi.

Salim bo'lub, sofiy bo'lub Junayd yanglig',  
Xalqni qo'yub, Haqq'a yonsam Zunnun yanglig',  
Nafsim bosib, qahr qilsam Hasan yanglig',  
Azizlarga mutobiat qilg'um kelur.

Dissertatsiyada Sulaymon Boqirg'oniy o'zining piri murshidi Ahmad Yassaviy Mustafoning xirqasini kiyganligi, luqmasini yeganini, Ka'baga haj safariga borganligi, Alloh tomonidan lozim ko'rilgan avliyolik ilmini egallagani, kunchiqardan to kun botargacha o'n sakkiz ming olamda mashhurligini, uning o'rni dor us-salomda bo'lib, Xizr bilan suhbatdosh, Ilyos bilan ulfatdosh ekanligini, shu tariqa Alloh qoshida xursandligini quyidagi mazmundagi misralari orqali ifodalab berilganiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Turkistonga boroling, xizmatinda bo'loling,  
Ulush bersa ololing shayxim Xoja Ahmad Yassaviy.  
Bobo mochin ul sulton murid bo'ldi begumon,

---

<sup>1</sup> Mustafa Sever. Bakirgan Kitabı. Hakim Suleyman Ata-Hikmetler ve Kısaslar, Ahmet Yesevi Universitesi Yayinlari., Ankara.-2018, -S.14.

## Hakim Xoja Sulaymon shayxim Xoja Ahmad Yassaviy<sup>1</sup>

Dissertantni fikricha, Sulaymon Boqirgʻoniy xalq orasida Hakim ota nomi bilan mashhur boʻlgan. Biroq hozirga qadar yaratilgan ayrim manbalarda Sulaymon ota va Hakim ota boshqa shaxslar sifatida qayd etilgan. Mazkur tushunarsiz holatga Alisher Navoiy “Nasoyim ul - muhabbat” asarida ushbu oydinlik kiritgan va munosib javobni taqdim etgan: “Hakim ota - oti Sulaymondur. Xoja Ahmad Yassaviyning murididir. Hamonki, bir kun Xoja tabhe (ovqat pishirish) buyurgʻondurki, matbaxiy (oshpaz) oʻtun yetmaydur, deb kelgandur. Alar asʻhobga degandurlarki, yozidin oʻtun terib kelturing va ul zamon yogʻin yogʻibdur ekandur. Asʻhobkim, oʻtun teribdurlar, matbaxga (oshxonaga) kelguncha yogʻin jihatidan oʻtunlar hul boʻlgʻondur.

Hakim ota tergan oʻtunlarni toʻniga chirmab, quruq kelturgʻondur. Xoja Hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarga bu laqab andin qolgʻondir va Hakim otaga hikmat tili goʻyo boʻlubdir”<sup>2</sup>. Boqirgʻoniy yoshlik chogʻlaridan Xoja Axmad Yassaviyning munosib muridi boʻlganligini isbotlaydigan naql va hikmatlar ham koʻp boʻlib, tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan.

Dissertant dissertatsiyada Sulaymon Boqirgʻoniyning Husayn Voiz Koshifiy tomonidan yuksak darajada ulugʻlanganligiga oid “Darveshlar ahvolidin turkiy tilda kalimoti hikmatomiz va latoyifu ibratangizlari Turkiston viloyatida maʼruf va mashhurdir va alarning favoyidi anfosi qudsiylardandur”<sup>3</sup>-deya tarif bergan. Boqirgʻoniy oʻtmish ajdodlarimiz “aqli komil” va “maʼriati shomil”, “qanoati tamom”, “shukronai neʼmati ilohiy”dan taʼlim oʻrgatgan shoir boʻlganligi bilan qadrlashadi. U “lutfu muruvvat”, “izzati mutavoze”, “axloqi hamida” sidqu sadoqatni ulugʻlaganligi sababli asrlar davomida el mehrini qozongan<sup>4</sup>-maʼlumotlarni keltirgan.

Sulaymon Boqirgʻoniy Ahmad Yassaviy boshlab bergan hikmatnavislik anʼanalarini faol tarzda davom ettirgan mutasavvif shoir va allomadir. U oʻz asarlarini “Sulaymon”, “Qul Sulaymon”, “Sulaymon Boqirgʻoniy”, “Hakim Sulaymon”, “Hakim Xoja”, “Hakim Xoja Sulaymon” kabi taxalluslardan foydalanib yozgan. Mutasavvif shoir oʻzidan boy maʼnaviy meros qoldirish bilan birga, turkiy tasavvufning keyingi davrlardagi taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan. Sulaymon Boqirgʻoniy koʻpgina asarlarini turkiy tilda yozib qoldirgan. Alloma oʻz asarlarini yozishda shakl, lozim boʻlsa mazmun nuqtayi nazaridan ham, oʻzining piri murshidi Ahmad Yassaviyga ergashgan va Yassaviy muridlari orasida hikmat anʼanasini davom ettirishda yuqori oʻrinni egallagan.

Mutasavvif oʻzining asarlari va hikmatlarida xuddi piri murshidi Ahmad Yassaviy kabi insonning tarbiyasi, uning mukammal bir borliq holiga qadar kelishi haqida bir qator maʼnaviy mavzularga eʼtibor qaratgan va shuni asosiy maqsad

<sup>1</sup> Mustafa Sever. Bakirgan Kitabi Hakim Suleyman Ata-Hikmetler ve KIssalar, Ahmet Yesevi Universitesi Yayinlari., Ankara.-2018, -S.16.

<sup>2</sup> Navoiy A. Nasoiimul muhabbat. –Toʻshkent.: Badiiy adabiёт,1968. – B.154.

<sup>3</sup> Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши муаллифлари Иброҳим Ҳаққул, Сайфиддин Раъфиддин. Тошкент.: “Ёзувчи”, 1991.-Б. 4

<sup>4</sup> Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши муаллифлари Иброҳим Ҳаққул, Сайфиддин Раъфиддин. Тошкент.: “Ёзувчи”, 1991.-Б. 4

qilib olgan. Mutasavvif o'zining ulug'vor asarlaridan biri bo'lgan "Imom A'zam qissasi"da qator ijtimoiy-falsafiy, axloqiy masalalarga, xususan, inson huquqlari, halollik, haromdan saqlanish, adolatli hukm chiqarish kabi jamiyat hayotidagi adolatning eng muhim tamoyillarga alohida urg'u bergan. Mazkur asar Markaziy Osiyo musulmonlari, ayniqsa, xalqimiz ming yillar davomida amal qilib kelayotgan hanafiylik mazhabining asoschisi Imom A'zam Abu Hanifaning hayoti haqida ma'lumot beruvchi axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega asardir. Mutasavvifning "Oxir zamon kitobi"da esa borliq falsafasining muhim mavzusi hisoblangan Yer va koinotning yaratilishi, qiyomatning alomatlarini bayon etilgan. Shuningdek, mazkur asarda alloma o'quvchilarga narigi ya'ni boqiy dunyo azoblarini eslatib, ularni dunyoda tinch, osoyishta, adolatli yashashga, zulm va sitam, zulmkorlikni tark etishga chorlagan.

Boqirg'oniy tomonidan yozilgan yana bir asar "Bibi Maryam qissasi"dir. Sulaymon Boqirg'oniy mazkur asarda Bibi Maryam va Isoni mol-dunyo uchun qayg'urmaydigan fazilatlarini bilan ajralib turadigan komil insonlar sifatida ta'riflaydi.

Yirik turk olimi M.F. Kupruluzoda "Oxir zamon kitobi" va "Bibi Maryam kitobi"ni O'rta Osiyoda, shuningdek, Itil atroflarida diqqat va harorat bilan o'qilgan asarlardandir"-deb ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Dissertatsiyaning "**Mutasavvif ma'naviy merosida tasavvuf va falsafaning umumnazarini masalalari tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida Sulaymon Boqirg'oniy tasavvufiy-falsafiy qarashlarining metodologik tahlili, mutasavvifning inson borlig'iga oid g'oyalarning tasavvufiy-falsafiy talqini tahlil qilingan.

Tasavvuf ta'limotining mazmun-mohiyatiga qisqacha sharh berganda, asosiy manbasi Qur'on va Hadislarda bo'lgan asoslar bilan insonning qalb tarbiyasiga urg'uni qaratgan, moddiy dunyoning o'tkinchiligi, fanoligini, baqo bo'lgani esa, Alloh ekanligini ishlab chiqqan bir fikr va hayot tarzidir deb tushunish lozimdir. Tasavvufning asosiy mavzusi inson bo'lib, insonning asosiy vazifasi sifatida o'zini komillik darajasigacha yuksaltirishi, moddiy narsalardan aloqasini uzib, Haq bilan birlashishdir. Sulaymon Boqirg'oniyning hikmat va qissalarida to'g'ridan-to'g'ri "tasavvuf" so'zi uchramasada, faqatgina bir o'rinda "ladun ilmi" so'zi ishlatilgan. Bizga ma'lumki "Ilmi Ladun" tasavvuf ilmiga aralashgan va Hizr payg'ambarga berilgan.

Hizr aytur: "Ushbu qush nega indi,  
Suv ichra suvcha ilmin senga berdi,  
Ugan izm ladun ilmin menga berdi"

Muni eshitib Muso murid bo'ldi ko'ring

Bu holat Qur'oni Karimda ham "Darxon qullarimizdan bir qul topdilarki, unga qavatimizdan bir rahmat (vahiy va payg'ambarlik) bergan, shuningdek unga biz tomondan bir ilm o'rgatildi" shaklida tilga olingan.

"Tasavvuf" so'zining "so'fiy" so'zi bilan bir xil ma'no va mazmun kasb etishi ma'lum. Aslini olganda o'rta asrlarda so'fiy desa tasavvuf tushunilgan. Tasavvuf-arabcha so'z bo'lib, uning o'zagi "safo" so'zidan olingan bo'lib, sof, toza, porloq

<sup>1</sup> Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши муаллифлари Иброҳим Ҳаққул, Сайфиддин Раъфиддин. Тошкент.: "Ёзувчи", 1991.-Б. 5

va shaffof degan ma'nolarni anglatadi. So'fiy – top-toza degani<sup>1</sup>. Chunonchi, tasavvuf nazariyotchisi Abulhasan Hujviriy so'fiy so'zining negizi qaysi so'z bilan ma'nodosh ekanligini qayd etib, asosiy e'tiborni "safo" va "kadar" tushunchalariga bergan. Hujviriy "narsaning latifligi va tiniqligi degani, o'shaning safosi deganidir. Narsaning dag'alligi va loyqaligi degani o'shaning kadari deganidir. Bas, bu qissa ahli o'z axloq va muomalalarini tarbiyalaydilar. O'z tabiatidagi ofatlardan uzoqlashadi. Ana shularni so'fiy deydilar va bu nom ularni anglatuvchi nomdir. Ularga bo'ladigan xatarlar ularning ajallaridirki, amallarini poklab, nomlariga mos qiladi"<sup>2</sup>, – degan fikr haqiqiy so'fiyga xos bo'lgan axloqiy, estetik sifat va xususiyatlar haqida gapirgan. Chunonchi, mutasavvif kadar bashariyatning asosiy sifati deb tavsiflab, insonning undan o'tishini murakkab dialektik jarayon sifatida tavsiflagan va "...bas, safo maqto'v so'z bo'lib, uning ziddi kadardir"<sup>3</sup>, – deydi va tasavvufning haqiqati bandaning safoga erishishi va kadardan o'tish bilan belgilanadi deb fikr bildiradi. Masalan, mutasavvifning quyidagi fikrlari bizning fikrlarimizning asosi bo'lib xizmat qiladi: "Safoni kadarning ziddi deb aytdim. Kadar basharning sifatlaridan biridir. So'fiylikning haqiqati ana shu kadardan o'tmoqlikdir"<sup>4</sup>.

Ma'lumki, inson moddiy va ma'naviy borliqdan tarkib topgan xilqat degan fikr hokimdir. Haqiqatda esa inson uch turli mavjudlik: modda, nafs va ruhdan bino bo'lgan. Chunki nafs va ruh boshqa-boshqa narsa bo'lib, bir emas, ikki haqiqatni tamsil etadi. Qur'oni Karimda ruh Ollohning bir tajalliysi va amri sifatida zikr qilingan. Inson ruhi, uning vujudga kelishi, tabiati va mohiyati, haqiqati muammosi haqidagi turli fikr va qarashlar, ta'limotlar, nazariyalarda xilma-xil yo'nalishlarda tadqiq etib kelingan.

Ruh inson tanasidagi moddiy asos (jism) ekanligi haqidagi qarashlar, va aksincha ma'naviy asos sifatida talqin etilgan qarashlar shular jumlasidandir. Falsafiy antropologiyada inson asosan biologizm, sotsiologizm va psixologizm konsepsiyalari orqali o'rganiladi. Zamonaviy psixologiyada ruh psixika tushunchasi bilan aynanlashtiriladi va inson borlig'idagi ko'plab sifatlar orqali ochib beriladi. Ma'lumki, "ruh" so'zi ma'nosi yunoncha "pnevma"dan olingan bo'lib, inson gavdasida yuruvchi, efirsimon bir jismni anglatadi. Sharq tasavvuf falsafasini, eng avvalo, ruh va ruhoniyyat falsafasi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bunda ruh yaratilarning eng sofi va eng porlog'i. U faqat xayr, faqat go'zallik uchun harakat qiladi. Anglanishi qiyin, hatto imkonsiz ko'ringan narsalarni ham ruh anglashga qodir. G'ayb dunyosiga ruh yo'l ochadi, haqiqat ahlining kashfi ruh bilandir. Mumtoz she'riyatda ruh haqida, ruhning xususiyat yoki fazilatlarini borasida yozmagan shoirni topish qiyin. Chunki ruhni bilish, ruhoniyy hayot uchun g'amxo'rlik qila olishga qadim-qadimdan inson o'zligini anglash va tanishning tub asosi deb qaralgan. Ulug' mutasavvif Yusuf Hamadoniyy

<sup>1</sup> Умар Форук Сайдо ал – Жазарий. Тасаввуф сирлари. – Тошкент, «Мовароуннахр». - Б.46

<sup>2</sup> Абулхасан Хужвирий. «Кашф ул мажжуб». Техрон, «Теббиейн». Фаридун Осиебий Ишкий Зинжоний тахрири остида. (А.А. Болтаев таржимаси), 2003. – Б. 22

<sup>3</sup> Абулхасан Хужвирий. «Кашф ул мажжуб». Техрон, «Теббиейн». Фаридун Осиебий Ишкий Зинжоний тахрири остида. (А.А. Болтаев таржимаси), 2003. – Б. 22

<sup>4</sup> Абулхасан Хужвирий. «Кашф ул мажжуб». Техрон, «Теббиейн». Фаридун Осиебий Ишкий Зинжоний тахрири остида. (А.А. Болтаев таржимаси), 2003. – Б. 23

ta'kidlaganidek, "Ruh asllarning aslidir. Odam vujudi va a'zolari ruh bilan tirik. Ruh borlig'i panohida badan ko'radi, biladi, eshitadi, ushlaydi, yuradi. Ruhning xususiyat-fazilatlarini tufayli donolikda qat'iyat, nazarda farosat va ibrat, eshitishda hikmatni anglash, ergashishda itoat, yurishda xizmat yuzaga keladi"<sup>1</sup>. Nasafiy insonning ruhiga yuksak baho beradi: "Ruh javhardir, u jismni harakatga keltiradi va takomillashtiradi. U tabiatga muvofiq o'simlik darajasida, harakatga muvofiq hayvon darajasida, aqlga muvofiq komil inson darajasida zuxur etadi"<sup>2</sup>. Hujjat ul-islom Muhammad G'azzoliy deydi, "Ruhni ko'rib bo'lmaydi, lekin ruh bor, u – "hastii nestnamoy", ya'ni yo'qday bo'lib tuyuladigan borliqdir.

Falsafiy fikr-mushohadalar, pand-nasihahat ham shayx-shoir xikmatlarining qat-qatiga singib ketgan. Boqirg'oni o'zining falsafiy fikr va qarashlarini go'zal va ta'sirchan shaklda yetkazish uchun badiiy tasvir vositalaridan ham mahorat bilan foydalanganini ko'rish mumkin. Sulaymon Boqirg'oni o'zining "Nafsim aytur" va "Ruhim aytur" iboralari bilan boshlangan o'nta hikmatida "nafs va ruh"ning falsafiy sharhida quyidagicha yoritilgan: "Bu besh kunlik tiriklikda" davron sur, tanni yayrat, deydi nafs. Ruh bunga qarshi: "Ilm birla tariqatning yo'lin bilib, sahar vaqtida uyg'oqlikni odat qil", – deydi. Tariqat maydonida javlon urmasdan "Haqiqat daryosidan" "gavhar" ham olib bo'lmaydi. Nafs uchun bularga ehtiyoj yo'q, chunki nafs "bu dunyoning mulkiga" egalik qilishga ishtiyoqmand. Ruhga esa bunday harislik begona: "muhabbat kamarini belga boylabon, bu dunyoga taloq berib ketayin", der. Nafs bo'lsa "yeb-ichib, tun-kun qorin to'ldiribon, yotiq uzra takya qilib yotoyin der". Shu bois shoir qahramoni ruhi nafsga mansub dunyodan kechish, unga "taloq" berib ketish tarafdori. Buning o'rniga u "Haqdin tavfiq" tilaydi, "tunu-kun tinmayin yodini aytib" Molikini o'ylaydi. Sulaymon Boqirg'oni o'zining ilohiy ishq haqidagi tasavvufiy-falsafiy qarashlari ham ahamiyatga ega. Oshiqlik - xolislik. Shu ma'noda xolislikki, Haq oshiqdari "nogahon bu dunyodan kechmoq kerak, taqdir qilg'on ul sharobin ichmak kerak" deb bilishadi va bu "sharob" ularni har nafasda ishq o'tiga giriftor etadi. Shuning uchun "dunyo va uqbo" to'g'risida oshiqdan hech nima so'ramaslik lozim.

Oshiqdan so'ramangiz dunyovu uqbo,  
Oshiq, ma'shuq uchun har dam o'lodur.  
Oshiqni kuydurur ishq o'ti,  
Oshiqdar ishq o'tig'a mubtalodur<sup>3</sup>.

Sulaymon Boqirg'oni "aroda ishq bo'lmasa" radifli she'rda bu mazmuni yanada rivojlantiradi va hatto shu ilohiy ishq in'om etilmaganida inson bolasi dunyoga ham kelmasdi, degan xulosani chiqaradi:

Odam kelmagay erdi, mursal tug'magay erdi,  
Rahmat enmagay erdi, aroda ishq bo'lmasa<sup>4</sup>.

Shuni ta'kidlash joizki, dunyoni tark qilish, o'lib tirilish tasavvufona usulda - baqo boqiysi tamoyiliga muvofiq talqin etiladi. Bu bosqichda so'fiy, ya'ni inson

<sup>1</sup> Чориев А. Инсон фалсафаси. - Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий нашриёти». 2007. – Б. 224

<sup>2</sup> Азизиддин Насафий. «Зубдат-ул хақойик» (Хақиқатлар қаймоғи). Нажмиддин Комилов таржимаси. - Тошкент: «Камалак», 1995. – Б. 55

<sup>3</sup> Боқирғоний С. Боқирғон китоби. –Тошкент.: Ёзувчи, 1991.- Б.13.

<sup>4</sup> Mustafa Sever. Bakırgan Kitabı. Hakim Suleyman Ata-Hikmetler ve Kısaslar, Ahmet Yesevi Universitesi Yayinlari., Ankara.-2018, -S. 352.

xudo bilan bog‘lanadi va eng oliy sifatlariga erishadi. Yassaviya tariqati va Sulaymon Boqirg‘oniy ijodi jamiyat siyosiy hayotiga umuman daxli bo‘lmagan, chunki tariqat insonni komillikka yetishish yo‘lidagi mashaqqatlar haqidagi g‘oyalar yig‘indisidan iborat edi. Yassaviya tariqati talablari shayx uchun ham, hukmdor uchun ham, oddiy soliq uchun ham bir xil edi. Sulaymon Boqirg‘oniy zohiriy va botiniy dunyoni anglashda murshidi Xoja Ahmad Yassaviy kabi yo‘l tutadi - nafs bandasi orzu qilgan “qismatdan ortiq” moddiy dunyoni nazar-pisand qilmaydi. Sulaymon Boqirg‘oniy fikricha, insonning botiniy dunyosi ilohiy muhabbat bilangina oboddir. Bu dard hamma narsadan qudratli va fayzlidir. Professor A.D.Knish bu yo‘nalishdagi qarashlarni tahlil etib yozadi: “Ishq mistik so‘fiyni mudom, har gal mistik kechinmalar avji bo‘lmish bilish ob‘yekti va uni bilishga intiluvchini bir - biridan ajralmas yaxlit holatga keltiradi”<sup>1</sup>. Sulaymon Boqirg‘oniyning fikriga ko‘ra, Allohga berilgan ishq har qanday dardning darmonidir va inson Allohga berilgan ishq vositasida fanofillohga erishadi, Allohning borlig‘iga singib ketadi. Ya‘ni har qanday dunyoviy aloqalardan uzilib, Alloh bilan birga bo‘ladi va bu holatga baqobilloh deyiladi.

Sening darding menga darmondin ortuq

Senga qul bo‘lganim sultondin ortiq

Demak, Sulaymon Boqirg‘oniy piri Xoja Ahmad Yassaviy kabi poklanish yo‘li Allohga yetishish yo‘lini qidiradi, “ilohiy ishq” yo‘lida bu dunyodan voz kechishni afzal bildi. Buyuk mutasavvif Aziziddin Nasafiyga ko‘ra ishq sevgining eng yuqori darajasidir. Ishq hech bir shaklda do‘stlikka toqat qilmaydi. Shuning uchun ishq oshiqning qalbini faqat ishqqa yo‘naltirishi va ishqdan boshqa butun havaslardan qalbni tozalashni istaydi<sup>2</sup>. Yana bir o‘rinda Aziziddin Nasafiy ishq haqida “Ey darvesh! Ishq soliklar Buroqi va tariqat ahlining ulovidir. Aql ellik yilda to‘plagan narsani Ishq bir lahzada unga o‘t qo‘yar va oshiqni pok va musaffo etar. Oshiq bir lahzada erishgan narsaga solik yuz marta chillaga o‘tirganida ham eplolmaydi. Negaki oqil dunyodadir, oshiq – oxiratda. Oqilning nazari Oshiqning sayrining qadamiga yetmas.”<sup>3</sup>-mazmunidagi fikrni bildiradi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda ma‘rifatli jamiyat qurishda Sulaymon Boqirg‘oniy tasavvufiy qarashlarining o‘rni”** deb nomlangan uchinchi bobida ma‘rifat mutasavvif falsafiy qarashlarining bosh kategoriyasi va mutasavvif tasavvufiy-falsafiy qarashlaridagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro aloqadorligi haqida fikr yuritilgan.

Dissertantning fikriga ko‘ra biz mutafakkir ajdodlarimiz asarlari mazmunidagi ma‘rifiy qarashlarni tahlil qilish, ularning hayoti, ijodi va merosining tasavvufiy-falsafiy qimmatini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. O‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz va ajdodlarimiz o‘zlarining yuksak darajadagi ma‘naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnatiga, atrof-

<sup>1</sup> Кныш А.Д. Учение Ибн Араби в поздней мусульманской традиции // Суфизм в контексте мусульманской культуры. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1989. С.11.

<sup>2</sup> Ibrahim Düzen. Aziz Neseft'ye göre allah, kainat ve insan. Istanbul. Furkan yayinlari. 2000. -S. 185

<sup>3</sup> Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. Нажмиддин Комилов, Олимжон Давлатов таржимаси. Тошкент: “Гафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2021.-Б.95

muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz. Turli g'oyaviy oqim namoyandalarining yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'quvchi yoshlar va talabalar uchun ma'naviy tarbiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Mana shunday mangu allomalar jumlasiga al-Xorazmiy, al-Beruniy, Imom-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Alisher Navoiy kabi daholarni kiritish mumkin. Ular o'zlarining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham falsafa faniga beqiyos hissa qo'sha olganliklari olib borgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. Buyuk daholarning ma'rifiy qarashlarini bugungi yoshlar ongiga yetkazish, ularni bahramand qilish uchun ma'naviyat va ma'rifatning rivojlanish bosqichlarini, turli oqim asoschilari va a'zolarining sermazmun hayot tajribalarini va ular yozib qoldirgan meroslarni puxta bilib olmoq kerak.

